



O'zbekiston Respublikasi ma'garcha
va maktab ta'limi vazirligi

_____likligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____lik maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
____-maktabgacha va maktab ta'lim tashkiloti
O'RTA HIL TARBIYACHISI

_____ning

2020 yil _____gi sog'lomlashtirish ishlarini
_____tashkil etish bo'yicha

METODIK TAVSIYA



Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yozgi sog‘lomlashtirish ishlarini tashkil etish bo‘yicha

METODIK TAVSIYA

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarning sog‘lom rivojlanishi, ularning jismoniy, ma’naviy, intellektual qobiliyatlarini shakllantirishda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining roli muhim ahamiyatga ega.

Yozgi davr bolalar uchun nafaqat dam olish, ularning sog‘ligini mustahkamlash, tabiat bilan yaqindan munosabat o‘rnatish, pedagogik madaniyatni shakllantirish, yangi ko‘nikmalarni egallatish, ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash uchun qulay imkoniyatdir.

Shuning uchun ham yozgi sog‘lomlashtirish ishlarini to‘g‘ri tashkil etish maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ushbu metodik tavsiyaning maqsadi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yozgi davrni samarali tashkil etish, bolalar uchun qulay pedagogik jihatdan mazmunli faoliyat sharoitlarini yaratish, ularning salomatligini mustahkamlashga qaratilgan yagona yondashishni shakllantirishga ko‘maklashishdir.

Unda yozgi oylarda bolalar uchun o‘tkaziladigan faoliyat turlari, mehnat va dam olish tartibi, ommaviy sog‘lomlashtirish tadbirlari, ota-onalar ishtiroki, xavfsizlik texnikasi qoidalarini o‘z aksini topgan.

Metodik tavsiya O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi” 2019-yil dekabrda O‘RQ-595-son, “Ta’lim to‘g‘risida” 2020-yil 23-sentabrda O‘RQ-117-son Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil dekabrda 802-son, “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 13-

iyulda O‘RQ-117-son, “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lomlashtirish ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2019-yil 25-iyuldagi

qaroriga asoslanib, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi va

Sog‘lomlashtirish vazirligining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning sog‘lomlashtirish va sog‘lig‘ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2018-yil 30-apreldagi 20/1, 10-qq/1-son qo‘shma qarorlariga

(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 14-mayda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3012), O‘zbekiston Respublikasi

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining “O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim muassasalarining joylashuvi,

tuzilishi va tashkillashtirishga oid sanitariya-gigiyenik talablar” 2018-yil 27-apreldagi 0355-18-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 8-mayda hisobga olindi, hisob raqami 6-son), O‘zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachining “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigiyenik talablar” 2021-yil 17-iyuldagi 0016-21-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 26-iyunda hisobga olindi, hisob raqami 30-son), O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining “Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida tibbiy xizmatni takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 11-dekabrda qabul qilingan 18-son qarori va boshqa amaldagi mavjud me‘yoriy huquqiy hujjatlar asosida hamda sog‘lom turmush tarzini rag‘batlantirish dasturlari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, barcha yosh guruhidagi bolalar, pedagoglar hamda ota-onalar uchun qo‘llanma vazifasini o‘taydi.

Yozgi sog‘lomlashtirish ishlarini amalga oshirish orqali bolalarning immunitetini oshirish, ularga tabiiy muhitda o‘rnatilgan sharoitlarda parvarish qilish tuyg‘usini singdirish, jismoniy faollashtirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga erishiladi.

Metodik tavsiya maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlariga yozgi davrda bolalar bilan ishlash jarayonida o‘zlarining kasbiy ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish va sog‘lom turmush tarziga hissa qo‘shish maqsadida tayyorlangan. Undan samarali foydalanish uchun har bir bolaning yozgi sog‘lomlashtirish davrini mazmunli, xavfsiz va qiziqarli qilishga erishish mumkin.

I BOB. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMIDA YOZGI SOG‘LOMLASHTIRISH ISHLARINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Yozgi sog‘lomlashtirish davrining mazmuni va ahamiyati

Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarida pedagoglar tomonidan bola (talab)ning yozgi sog‘lom rivojlanishi va ularning jismoniy, ma’naviy, intellektual qobiliyatlarini shakllantirishda O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi” 2019-yil 16-dekabrda qabul qilingan O‘RQ-595-son Qonunida bir qator ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Ushbu qonunda belgilangan vazifalar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni sog‘lom, jismoniy va intellektual rivojlanishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilishi, ularda bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish, o‘quv yili davomida olgan bilimlarini mustahkamlash va barcha asosiy kompetensiyalarini shakllantirish (kommunikativ, ijtimoiy, shaxsiy, bilish va tanqidiy fikrlash), sog‘lomlashtirish, chiniqtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish ishlarini samarali tashkil etilishiga alohida e‘tibor qaratish zarur.

Ushbu davrda bolalar bilan o‘tkaziladigan barcha tadbirlarni yengillashtirish, qiziqarli va ko‘tarinki o‘tishini ta‘minlash, o‘yin jarayonini faollashtirish, turli ko‘ngilochar tadbirlar, kichik sayrlarni muntazam tashkillashtirish, ijodiy va amaliy

ishlarni bajartirish, quyosh, havo, suv muolajalarini o‘rinli qo‘llash, charchoqyozdi mashqlar va alohida belgilangan kun tartibiga qat’iy amal qilish tavsiya etiladi.

Yozgi sog‘lomlashtirish davrining maqsadlari:

Bolalarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish va mustahkamlash;
jismoniy, aqliy va ijtimoiy salomatligini mustahkamlash, ularning kognitiv, kommunikativ, psixologik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash;
sog‘lomlashtirish va chiqniqtirish tadbirlarini tashkil etish;
tabiat qo‘ynida dam olish orqali ijobiy emotsional muayyan yoshlar va ularni hayotga faol tayyorlash;
bolalarning shikastlanishi va kasallanishini oldini olish;
yozgi davrda maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘z faolligini, ijtimoiy-hissiy rivojlanishini ta‘minlash;
sayr va kuzatish jarayonlarida muammasiz to‘g‘ri qarorlar qabul qilish, tanqidiy fikrlashga o‘rgatish;
bolalarning rivojlanish sohalari yozgi mavsumning imkoniyatlarini shakllantirish, bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlashga qaratilgan ta‘lim-tarbiya jarayonining samarali shakli va usullarini foydalanish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish.

Yozgi sog‘lomlashtirish davrining vazifalari:

bolalarning salomatligini jismoniy rivojlanishini yaxshilash, ularni axloqiy tarbiyalash, qiziquvchanlik va faolligini rivojlantirish, madaniy-gigiyenik va mehnat ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini amalga oshirish;
bolalar hayoti va salomatligini muhofaza qilishni, bolalarning sayrda mustaqil, ijodiy faoliyati uchun zaruriy sharoitlarni yaratish;
bolalarning sog‘lomlashtirish va dam olishlarini ta‘minlash;
tabiiy muhit (havo, quyosh, suv) keng foydalanish hisobiga bolalarni sog‘lomlashtirish va chiqniqtirish va jismoniy rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini amalga oshirish;
tabiat muhitida (gulzor, bog‘, tajriba maydonchasi, ekologik yo‘lakcha) mehnatni tashkil etish va o‘z-o‘zini o‘qitish faoliyati, turli xil ta‘limiy-tarbiyaviy va harakatli o‘yinlarni o‘z ichiga olgan, amaliy kuzatish, kichik tajriba-eksperimentlar, samarali tadqiqot tadbirlarini o‘z ichiga olish uchun tabiiy muhit (sharoit)dan foydalanish;
sog‘lom turmush tarziga odatlantirish;
sog‘lom va xavfsiz ovqatlantirish;
yozgi davrda davomida olingan bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etish;
ijtimoiy-kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish;
xavfsizlik xatti-harakat ko‘nikmalarini takomillashtirish;
ota-onalar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi, sog‘lomlashtirish tadbirlarini uyda davom ettirishlari bo‘yicha pedagogik va sanitariya-targ‘ibot ishlarini amalga oshirish, yozgi davrda ularni bolalar bilan birgalikdagi tadbirlarga jalb qilish.
Yozgi sog‘lomlashtirish davrida pedagoglarning asosiy vazifasi bolaning dam olishi va jismoniy rivojlanishiga bo‘lgan ehtiyojini ta‘minlashdir.

Yozgi sog'lomlashtirish davrining asosiy ustuvor yo'nalishlari:

1. Jismoniy sog'lomlashtirish va milliy o'yinlar:

milliy sport va harakatli o'yinlar: chillak, arqon tortish, quvlashmachoq va boshqalar;

har kuni ochiq havoda mashqlar va musobaqalar;

bolalarda jamoaviylik ko'nikmalarini va hamkorlikni rivojlantirish;

2. Milliy qadriyatlar va urf-odatlar:

yozgi bayramlar va an'analarni bolalarga tanishtirish (xalq o'yinlari, hunarmandchilik ko'rgazmalari va boshqalar);

milliy qo'shiqlar, raqslar va ertaklar orqali madaniy tarbiya;

bolalarni milliy liboslar va an'anaviy o'yinlarni o'qitish.

3. Tabiat va ekologik tarbiya:

milliy dasturdagi ekologik tarbiya yo'nalishini kuchaytirish: bog'da ishlash, gul ekish, suvni tejash va shu kabi ishlar;

tabiat qo'ynida faoliyatlar o'tkazish va o'simliklarni kuzatish;

bolalarda tabiatga mehr va ehtiyojini shakllantirish.

4. Insonparvarlik va Vatangarlik:

milliy davlat ramzlari (bayroq, gerb, himn)ni tanitish va ularga hurmat uyg'otish;

O'zbekiston tarixi haqida qiziqarli hikoyalar;

bolalarda Vatanga hurmat va milliy g'ururni oshirish.

5. Oila va mahalla hamkorlik ishlari:

ota-onalar uchun milliy o'yinlar va tadbirlar tashkil etish;

mahalla va mahallalararo sog'lomlashtirish tadbirlari (sport musobaqalari, madaniy kechiklar).

Bog' va ta'lim tashkilotining yozgi davrga tayyorligi mezonlari:

bolalar jismoniy tarbiya maydonchalarini SanQvaM talablari asosida ta'minlash va bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish bo'yicha ko'rsatmalarga rioya qilish;

yoziq davr uchun ish rejasi, bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, tashkilot maydonchalariga yaqin joylarga xavfsizligini ta'minlagan holda ekskursiyalar va tadbirlarni tashkil etish, bolalarni zararli o'simlik va boshqa narsalar bilan tanishtirishning oldini olish bo'yicha ko'rsatmalar, toza ichimlik suvi bilan ta'minlash rejimini tashkil etish, tibbiy-sanitariya va profilaktika tadbirlarini tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha hujjatlar, pedagog va ota-onalar uchun turli tavsiyalar va maslahatlar berish;

o'yin maydonchalarida joylashgan qum (qumdonlar) qutilaridagi qumni gigiyenik talablarga javob beradigan yangi qum bilan har yili (bahorda) to'liq almashtirish; qumning ifloslanishini oldini olish uchun yopiq holda saqlanishi (qopqoqlar yoki polimer, plyonkalar, tentlar yoki boshqa himoya vositalari) hamda soyabon bilan ta'minlash;

qum va bolalar maydonchasini o'z vaqtida tozalash, namlantirish va o'yinchoqlar bilan ta'minlash uchun sharoit yaratish;

bolalar bilan yozgi sog'lomlashtirish davrini tashkil etishni nazorat qilish tizimining mavjudligi.

*vab-saytimiz: **Zokirjon.com***

Zokirjon.com vab-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

+99891-328-88-38 nomerga telegramdan yozishingiz yoki telegramdan jek567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

28 listdan iborat o'rta guruhlariga yoz davri metodik tavsiyani to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: **HUMO**

9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet vab-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT QILMANG.

ONLINE KOMPYUTER XIZMATLARI

O‘zbek va rus bog‘chalari uchun
Buyutrma asosida

MTT direktori, direktor o‘rinbosari, MTT psixologi, defektologi, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo‘riqchisi, MTT hamshirasi, XIBDO‘ va tarbiyachilar uchun:

testlar, to‘garaklar, bayram tadbir senariylari, ochiq faoliyat ishlanmalar va slaydlar (taqdimotlar), refetarlar, mustaqil ishlar, ko‘rgazma va tarqatmalar, faxriy yorliq, diplom, tashakkurnomalar va boshqa hujjatlarni tayyorlab beramiz.

Tel:91669-34-74 Telegramdan: @talimxizmatlar izlab toping.

Подготавливаем для директора МТТ, заместителя директора, психолога МТТ, дефектолога, музыкального руководителя, инструктора по физической культуре, медсестры МТТ, ХИБДО и воспитателей:

тесты, кружки, сценарии праздничных мероприятий, разработки открытых занятий и слайды (презентации), рефераты, самостоятельные работы, выставки и раздаточные материалы, почётные грамоты, дипломы, благодарственные письма и другие документы.

Тел: 91669-34-74 Telegram: @talimxizmatlar (найдите по поиску)